

DINSHUNOSLIK VA FALSAFA MUNOSABATI

Ilmiyrahbar:

Samadov Xurshid

Abdunazarov Asilbek Arziqulovich

Muhammad al-xorazmiynomidagi Toshkent

axborotxnologiyalaruniversiteti

Samarqand filiali talabasi .

Email:abdunazarovasilbek884@gmail.com .

Telefonraqam: +998942525566 .

Annotatsiya: Mazkur qo'llanma oliy ta'lim tizimi talabalariga mo'ljallangan bo'lib, Respublika oliy o'qu yurtlarida "Dinshunoslik" va "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini o'qitishda, shuningdek, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi bo'limlari, xotin-qizlar qo'mitalari mas'ullari, mahalla faollari uchun go'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Dinshunoslik, diniy e'tiqod, ijtimoiy fanlar, diniy ong, diniy tajriba, diniy munosabatlar, shaxs kamoloti, ma'naviy hayot, tarixiy jarayonlar, ilmiy bilish, empirik yondashuv, abstrakt tafakkur, intuitiv tushuncha, ilohiyotshunoslik, komil inson, dinni o'rganish, sotsiologik tahlil, madaniyatshunoslik, falsafiy asos, taraqqiyot va din.

Bugungi kunda Uchinchi Renessansni boshdan kechirayotgan hamda jahon hamjamiyatiga faol kirib borayotgan bir sharoitda O'zbekiston Respublikasida turli diniy konfessiya vakillari bilan muloqot qilishning yuksak madaniyatiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham dinshunoslik fanining muhim vazifasi talabalarga turli dinlarning kelib chigishi, taraqqiyoti tarixi, ta'limoti, asosiy manbalari, hozirgi davrdagi holati, ma'lum xalq hayotida tutgan o'rnini haqida umumiy ilmiy tushunchalar berib, ularda mazkur din vakillarini har tomonlama chuqurroq tushunib yetish va ular bilan muloqot

qilishda o'zlarining buyuk ma'naviyat egasi ekanliklarini namoyon qilishlari uchun yetarli bilim bilan qurollantirishdan iborat.

1. Din insoniyatning uzoq ijtimoiy-tarixiy va madaniy rivojlanish jarayonida paydo bo'lgan ma'naviy boyliklaridan biridir. Unda insoniyatning asrlar davomida to'plangan ijtimoiy, ma'naviy, ilmiy, badiiy, siyosiy, xullas inson va jamiyat, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar jarayonida paydo bo'lgan rang-barang tajribalari o'z aksini topadi. Demak, inson o'zini ongli mavjudot sifatida idrok etganidan beri sehrli kuchlarga va diniy qarashlarga ishonib keladi.

Sobiq Sho'ro davrida o' quv yurtlarida "Ilmiy ateizm" degan fan o'qitilgan. Uning maqsadi dinning "xalq uchun afyun" ekanligini isbotlash, iloji borichakishilar ongi va turmush tarzidan diniy tushunchalarni siqib chiqarish edi. Bunday tazyiq kishilar ma'naviyatiga aks ta'sir etmay qolmadi. Natijada marksizm-leninizmning o'zi "din"ga sajda qilinadigan ta'limotga, dogmaga aylandi. Eng qayg'ulisi dinga qarshi kurash komil insonni tarbiyalash, taraqqiyot, ilm-fan, madaniyat, sivilizatsiya nomi bilan amalga oshirildi. Dinni ushbu qadriyatlarga qarama-qarshi qo'yish oxir natijada inson ma'naviy dunyosini siyqalashtirishga, kishilarni shu kun tashvishlari bilangina yashashga, tarixiy-madaniy merosni mensimaslikka, uni rad etishga olib keldi.

Madaniyat va sivilizatsiya tarixi kishilik jamiyati taraqqiyotini dinsiz tasavvur qilib bo'lmazligini ko'rsatadi. Biz har bir kishi albatta dindor bo'lgan va dindor bo'lishi shart degan fikrni ilgari surmoqchi emasmiz. Ammo umumiy ijtimoiy-tarixiy jarayonlar, kishilik jamiyatining rivojlanishi mudom din ta'sirida bo'lgan yoki din ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida madaniyat va sivilizatsiyani yo'naltirib, boyitib goho ular bilan to'qnashib, kishilikni yangi-yangi kashfiyotlarga, izlanishlarga undagan. Hatto dinda inkvizitsiya, mutaassiblik avj olgan davrlar ham kishilarga aqlu idrokni qadrlash, moddiy dunyoni, borliqni yanada chuqurroq tadqiq etishga, hurfikrlilikni avaylab-asrashga o'rgatdi. Diniy mutaassiblik bilan ratsional ong o'rtasida kurash bo'lmaganida ilm, fan, texnika, sivilizatsiya - inson tafakkuri, aqlu idrokiga ishonch bu darajada oshmasdi.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida din va diniy e'tiqodlarga yangichamunosabat shakllandi.

Birinchidan, dinga ajdodlarimizning ulkan hayotiy va ma'naviy tajribalarini uyg'unlashtirgan tarixiy-madaniy meros sifatida qaraladigan bo'ldi.

Ikkinchidan, dinni ilm-fanga, inson aqlu idrokiga qarshi turuvchi hodisa deb emas, balki yon-atrofni, olamni, dunyoni idrok etishning o'ziga xos usuli deb tushunish yuzaga keldi.

Uchinchidan, dinni ma'naviy, madaniy hayotning, ijtimoiy ongning bir ko'rinishi sifatida nafaqat ijobiy shu bilan birga bahs talab mavzularni ham o'z ichiga oladigan hodisa deb qarash shakllanmoqda.

To'rtinchidan, dinda kishilar ma'naviyatini, ruhiy dunyosini boyitadigan, asrlar davomida shakllangan ijtimoiy-tarbiyaviy tajribalar to'plangan, ushbu merosdan foydalanish komil inson tarbiyasi uchun muhimdir degan fikr qaror topmoqda.

Beshinchidan, O'zbekiston fikrlar va ilmiy yondashishlar plyuralizmini (xilma-xilligini) qo'llab-quvvatlovchi, inson huquqlarini qadrlovchi demokratik jamiyat qurishga intilayotgan ekan, diniy e'tiqod va fikrlar ham ijtimoiy taraqqiyotimizning bir tomoni, ularsiz fuqarolararo totuvlikni, konsensusni tasavvur qilish qiyin degan qarash qaror topmoqda. Bulaming barchasi din vadiniy e'tigod masalalariga oid fanlarni ham yangicha o'g'itish masalasini kun tartibiga qo'ydi.

Dinshunoslik ijtimoiy fanlar turkumiga kiradi. U falsafa, psixologiya, tarix, madaniyatshunoslik, etnografiya, arxeologiya, pedagogika, sotsiologiya, siyosatshunoslik, huquqshunoslik kabi bir qator fanlar bilan bog'liqdir. Lekin u o'z tadqiqot ob'ekti, maqsadi va vazifalari, nuqtai nazar bilan boshqa fanlardan farq qiladi.

Dinshunoslik din va diniy e'tiqodlarni keng ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy ongning ifodasi, insonning yon-atrofni, olamni bilishga intilishining bir ko'rinishi sifatida

qaraydi. Demak, dinshunoslikning tadqiqot ob'ekti diniy munosabatlar, diniy ong va diniy tajribadir.

Dinshunoslik fanining maqsadi:

- a) diniy tajriba, diniy munosabat va diniy ongning kelib chiqish va shakllanish jarayonlarini, qonuniyatlarini;
- b) din va diniy e'tigodlarning ijtimoiy-tarixiy va madaniy-ma'naviy hayotdagi o'rni, ahamiyatini;
- c) dinning shaxs kamolotiga, uning ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy, badily, dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini tadqiq etishdir.

Dinshunoslik fanining vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- talabalarda dinning kelib chiqishi, ta'limot sifatida shakllanishi va tarqalishi haqida ob'ektiv ilmiy qarashlarni hosil qilish;
- diniy tajribalarni o'rganish va ularning o'ziga xos jihatlarini ochib berish;
- diniy munosabatlarning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini aniqlash;
- diniy ongning inson tafakkuri, aqlu idroki bilan munosabatlarini kuzatish;
- diniy e'tiqodning shaxs psixologiyasi, ma'naviyati va turmush tarziga, komil insonning shakllanishiga ijobiy ta'sir etish jihatlarini o'rganish va hakoza.

Ushbu maqsad va vazifalar bir-birlariga bog'lig, ular tadqiqotchi anglagan yondashuvlarning xususiyatlarini ifoda etadi.

Shuni esda tutish kerakki, "Dinshunoslik" diniy ta'limotlarni o'rgansada, lekin ilohiyotshunoslikning o'mniga da'vogar emas. Dinshunoslik dini kishi ongining ob'ektiv borliqqa munosabati, ushbu borliqni empirik (tajriba asosida), abstrakt (mavhumlashtirish orqali) va intuitiv (hissiy) bilishlarning natijasi deb biladi. Shuning uchun "Dinshunoslik"ning asosiy tadqiqot usuli ilohiyotshunoslikka xos bo'lgan transtsendental

(aqlu idrokdan tashgari) emas, balki tajribaga, real borliqqa asoslangan ilmiy bilishdir. Shu nuqtai nazardan ham "Dinshunoslik" ilm sohasidir. Shu o'rinda ilmiy izlanishlardagi dinning kelib chiqishi haqidagi asosiy ta'limotlar haqida to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi.

Yer yuzida dastlabki odamlar (preantropalar) bundan 5- 6 million, ilk diniy tushunchalar esa 40 ming yil (Markaziy Osiyoda 10 ming yil) avval paydobo'lgan. Demak, diniy tasavvurlar ma'lum bir ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayo-nida yuzaga kelgan. Biroq dinning kelib chiqishi haqida turli, goho qarama-qarshifikrlar mavjud.

Birinchisi, dinning kelib chiqishi juda oddiy. U kishining g'ayritabiiy kuchlarga ishonishi va tabiat kuchlari oldidagi ojizligidan, nodonligidan kelib chiqqan degan tushunchadir.

Agar nafaqat odamlarda va hayvonlarda, shu bilan birga yon-atrofdagi barcha narsalarda jon bor deb ularni asrashga, avaylashga ishongan ibtidoiy odamlari «nodon» desak ommaviy qirg' in quroli - atom bombasini yaratgan XXasr odamlarini "oqil" deb atash to* g'rimi?

Ikkinchisi, diniy garashlar ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar natijasida yuzaga kelgan, degan fikrdir. Materializm tarafdorlari ushbu qarashni ilgari surar ekanlar, dinni ijtimoiy ong shakllaridan biri, iqtisodiy bazis natijasi deb qaraydilar. Bizningcha, bu bir yoglamalikdir. Iqtisodiy omillar kishi ongiga qanday ta'sir qilsa, ong, shu qatori din ham, iqtisodiy hayotga shunday ta'sirko'rsatadi. Bundan tashqari diniy tushunchalar iqtisodiy bazis bilan o'Ichanganida edi, har bir din ko'rinishi oz davrining iqtisodiy munosabatlarini ifoda etgan va u bilan birga tarix sahnasidan tushib golgan bo'lardi. Har bir yangi iqtisodiy munosabatlar esa yangi diniy tushunchalami va dinni shakllantirgan bo'lardi.

Uchinchisi, diniy tushunchalar ma'lum bir doirada, «xarizmatik yo'l bosh-chilanning g'oyalari ta'sirida yuzaga keladi, degan fikrdir. Masalan, ushbu nuqtai-nazarni taniqli sotsiolog Maks Veber ilgari suradi. Ayrim shaxslarning

diniy qarashlarning shakllanishida katta rol' o'ynashini inkor qilmagan holda shuni aytish zarurki, diniy tushunchalarda nafaqat ayrim shaxslar, shu bilan birga ayrim elat, millat, xalqqa oid qarashlar, urf-odatlar ham o'z aksini topadi.

Tortinchisi, diniy tushunchalar "axloqiy burchlarning ta'siri" (I.Kant) va mavhumlik oldidagi qo'rquv (B.Rassel)dan kelib chigadi, degan qarashlardir.

Beshinchisi, taniqli teolog va faylasuf A.Men* esa din «insondan tashqarida, insonning u (ya'ni, o'sha insondan tashqaridagi) bilan aloqasi»

natijasi deb isbotlashga harakat qiladi. Xullas, diniy tushunchalarning kelib chiqishi haqidagi fikrlar har xil, ba'zan esa ular bir-birlariga ziddir.[Falsafa (II Modul Dinshunoslik) / O'quy qo'llanma / Abdulvohid Nuriddinov, Namangan: "Iste'dod ziyo press", 2024. - 132 b.]

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt tarag'giyoti va xalq farovonligining garovi. T.: "O'zbekiston", 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston", 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston", 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: O'zbekiston, 2021.
6. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: O'zbekiston, 1998.

7. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston, 1999.
8. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch". T., 2009.
9. Qur'oni Karim. T.: Cho lpon, 1992 y.
10. Al-Buxoriy. Hadislar to'plami. 1 - 4 kitoblar, T.: Ma'naviyat, 1993 -1998 y.